

systematic "approach-from-the-macro-to-the-micro-level," involving thorough reading, contextualization, awareness of legal nuances, and appropriate translation strategies. By adhering to these principles, legal translators can ensure accurate and reliable translations, facilitating effective communication across diverse legal contexts and languages.

## REFERENCES

1. Haigh, Rupert. Legal English. Abingdon/New York: Routledge-Cavendish, 2004
2. Kelly, Dorothy. A Handbook for Translator Trainers. Manchester: St Jerome, 2005.
3. Pizzuto, Angelo. 'Translation Procedures: The Technical Component of the Translation Process'. Accessed March 25, 2019. <https://bit.ly/2tKENTN>
4. Šarčević, Susan. New Approach to Legal Translation. The Hague–London–Boston: Kluwer Law International, 2000
5. Šarčević, Susan. Legal Language in Action: Translation, Terminology, Drafting and Procedural Issues. Zagreb: Globus, 2009.

## TALABA-TARJIMONLARNI BADIY TARJIMAGA O‘RGATISH MASALALARI

**Sultanova Saida Nuriddinovna,**

senior teacher

Department "Teaching English Language Methodology and Educational Technologies", Faculty «English Philology», Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan

*Annotatsiya.* Badiiy tarjima ijodiy faoliyatning o‘ziga xos bir murakkab shakli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu faoliyatda, yaratilgan asl badiiy asar shakl va mazmuni, o‘ziga xos barcha milliy va madaniy komponentlari saqlangan holda o‘zga til vositalari asosida qayta yaratiladi. Bu jarayon tarjimondan katta mahorat va qobiliyatni talab etadi. Badiiy tarjima ana shunday murakkab ijodiy jarayondir.

*Kalit so‘zlar.* Tarjima mahorati, kognitiv – diskursiv usullar, madaniy tendensiyalar, badiiy va estetik xususiyatlar, lingvodidaktik mashqlar, psixologik–pedagogik nisbat.

**Kirish:** Bugungi kunda har tomonlama yetuk, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tarjimaga o'rgatish metodikasi nazariya olimlari va amaliyotchilarni professional tarjimonlarni tayyorlash masalasi yuzasidan tobora e'tiborini tortib kelmoqda. Professional darajadagi tarjimonlarni tayyorlashda og'zaki va yozma tarjimaga o'rgatish mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib pedagog va talabalardan jiddiy yondoshuvni talab etadi.

**Asosiy matn:**

Jamiyatda badiiy tarjimaning ahamiyati beqiyosdir. Badiiy adabiyot jahon taraqqiyotiga, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik munosabatlariga, shuningdek madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi. Bu jarayonlarning barchasi "badiiy tarjimada" o'z aksini topadi. Shu munosabat bilan badiiy asarlarni tarjima qilishga o'rgatish ya'ni badiiy tarjimini o'qitish metodologiyasi bo'lajak tarjimonga tarjima mahoratini shakllantirish masalasini hal qilishda yordam beradi. Bunda tarjimon qay tarzda o'zga madaniyatni to'laqonli ravishda, muallifning uslubini saqlab qolgan holda yoritib berishga o'rgatilib, uning kasbiy kompetensiyasi shakllantiriladi. Badiiy asar matni ko'p turdagi implikatsiyalarni (yashirin jihatlarni) o'z ichiga oladi, bu esa tarjimondan badiiy asar matnini keng qamrovli tarzda tarjima qilishni talab etadi. Tarjimon uchun qiyinchilik, avvalo, har bir syujet harakati va har bir badiiy obrazning imkon qadar semiotik darajada to'g'ri yetkazilishidadir. Har qanday badiiy tarjimini tahlil qilish har doim asl matnda mavjud bo'lgan tasvirlar, tushunchalar, motivlar (badiiy asarning minimal tarkibiy qismi, mazmunning ajralmas elementi), troplar (epitet, allegoriya, ironiya, metafora, litota, antonomasiya, sinikdoxa, giperbola va xk) va og'zaki ijod estetikasining boshqa elementlarini muayyan darajada qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi [1,304].

Tarjima qilingan badiiy matndagi asl badiiy tushunchalar xususiyatlari optimal darajada saqlab qolinsa tarjima adekvatdir. Taqqoslash metodi asl matnning badiiy tushunchalari belgilarini ochib berish uchun xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida kognitiv – diskursiv va adabiy usullarni , shuningdek matnni talqin qilish (interpretatsiya) usulini qo'llashni o'z ichiga oladi. Taqqoslash metodi orqali mikro va maykro badiiy matnlarda uchraydigan metafora, giperbola, aforizm, anafora, antitea, litota, sinekdoxa, epitet, ritorik savollar va xk. tilning ekspressiv vositalarini semantik jihatdan tahlil etiladi. Taqqoslash metodi yordamida tarjima sifatini qiyoslash va baholash tamoyillari ham inobatga olinadi. Tarjima sifatini taqqoslashda asl matn tarjimasining bir necha variantlari tanqidiy tahlil asosida ko'rib chiqilishi ko'zda tutiladi. Estetik ma'lumotlarni saqlab qolishda badiiy matn nutqining estetik vazifasi yetakchi o'rin egallaydi.

Badiiy matn nutqining estetik vazifasi kitobxonga yoki tinglovchiga matnnig ta'sirida namoyon bo'ladi. Muallif matn orqali qahramonlar hatti xarakterini ochib bergan holda, ularning holati va hissiyotlarini yetkazib berish orqali o'z g'oyasini kitobxon va tinglovchilarga singdiradi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar leksik, grammatik, stilistik xususiyatlar, shuningdek xar ikki tilga tegishli bo'lgan madaniyatdagi tafovutlarga bog'liq. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tish tarjimonning qay darajada muallif nutqi uslubi va g'oyasini tahlil qila olishidadir va bo'lajak tarjimonlarni muammolarning yechimini topish yo'llariga o'rgatish muhim masala. Badiiy tarjimaga o'rgatish jarayonida talaba-tarjimon o'rgangan chet tillarning ma'no nozikliklarini, ifoda imkoniyatlarini to'la o'zlashtirish imkoniga ega bo'lishi barobarida bir tildaga asarni boshqa tilga o'girish chog'ida faqat o'zlari bilgan, tor doiradagi ifodalar bilan cheklanib qolish kabi kamchiliklarni yengib o'tish tasavvuri hosil bo'ladi. Har bir tilning nozik jihatlari, rang-barang imkoniyatlarini yaxshiroq his qila boshlaydi [2,368].

Filologik tayyorgarlik orqali bo'lajak tarjimon badiiy tarjima bilan bog'liq madaniy tendensiyalar, turli darajadagi aks ettirilish va ifodalash turlari va turli adabiyotlar bilan ishlashni o'rganadi. Badiiy tarjima bo'yicha filologik

tayyorgarlikni rivojlantirish va amalga oshirish raqobatbardosh yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga yordam beradi.

Badiiy tarjimaga o'rgatishda badiiy tarjima kursini avvalambor kirish qismidan boshlash ya'ni bo'lajak tarjimonlarni badiiy tarjima tarixi, badiiy tarjimaning janrlari, badiiy tarjima bilan shug'ullangan mashhur tarjimonlar, tilshunos, shoir va yozuvchilar faoliyati bilan tanishtirish maqsadga muvofiq.

Tarjimonning eng asosiy fazilatlaridan biri bu bilim va professional tarjima mahoratini egallash qobiliyatidir. Tarjimon kamida ikki tilni (manba tili va qabul qiluvchi tili) yuqori darajada bilishi kerak. Ushbu kasbiy fazilatlar odatda bo'lajak tarjimon tomonidan oliy o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida egallanadi. Badiiy matnlar tarjimoni mukammal tarzda adabiy tilni yaxshi bilishi, o'z fikrini qog'ozda malakali va chiroyli ifodalay olishi kerak. Badiiy adabiyot matnlari uchun nima xabar qilinayotgani emas, balki xabar berish usuli qandayligi muhimroqdir.

Har qanday horijiy muallif asari tarjimasini amalga oshirishdan oldin tarjimon muallifning uslubi, uning ideologiyasi va ritmini belgilashi uchun muallif asarini bir necha marotaba mutoala qilishi lozim. Shuni ta'kidlash kerakki tarjimon muallif tabiati va temperamenti qay darajada o'z tabiati va temperamentiga mos kelishiga ko'ra asar tarjimasini o'z zimmasiga olishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Tarjimon san'atkor, tarjimon so'z ustasi, u tarjima qilayotgan asar hammuallifi. Hammualliflik esa tarjimon zimmasiga juda katta mas'uliyatni yuklaydi. Buni bo'lajak tarjimonlar albatta bilishlari lozim [3,102].

Badiiy tarjimani baholashning asosiy mezoni nafaqat asl nusxaning semantik mazmunini, balki asarning umumiy uslubini ham saqlab qolishdir. Har qanday badiiy asar milliy nutq madaniyatining namunasidir. Badiiy asarni mutoala etayotgan o'quvchi badiiy asar matnini leksik va frazeologik tarkibi, grammatik tuzilishi, uslubiy vositalar va xk. orqali idrok etadi va baholaydi. tarjimon oldida badiiy matnni tarjima qilish jarayonida bir qator savollar va muammolar tug'iladi, jumladan, lingvistik, estetik, psixologik - pedagogik va boshqa muammolar. Bu muammolarni yechishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: tarjimadan oldin asl nusxaning badiiy va estetik xususiyatlarini to'liq tahlilini amalga oshirish,

muallim maqsadi va matn ma'nosini to'liq tushunishga erishish va shuningdek tarjima jarayonini lingvodidaktik mashqlar va vazifalar yordamida takomillashtirish. Badiiy tarjimaning pedagogik xususiyatlari ta'lim va tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, badiiy tarjimaga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va o'qitish shakllarining uzviylikini o'zida namoyon etadi. Badiiy tarjimaga o'rgatishda axloqiy tarbiya xam muhim ahamiyat kasb etadi, tarjima uchun tanlanayotgan asarlar ma'lum bir mezonlar asosida tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Har qanday kasbiy tayyorgarlikda nafaqat ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'rgatish, balki shaxsni aynan shu faoliyat uchun maqbul bo'lgan psixologik fazilatlar bilan qurollantirish kerak. Badiiy asarlar tarjimoni uchun bular, masalan, doimiy e'tibor, yuksak ijodkorlik, turlicha fikrlash, zo'r lingvistik va adabiy qobiliyat va mas'uliyat, ya'ni boshlangan ishni oxiriga etkazish tendensiyasi, mashaqqatlilik, vijdonlilik, doimiy ravishda dunyoqarashni kengaytirishga intilishdir [4,256].

O'z kasbiy dunyoqarashini kengaytirish va maxsus filologik madaniy bilimlarni chuqurlashtirish, qaysidir ma'noda o'zini o'zi inkor etish (ya'ni tarjima qilingan asar muallifi konsepsiyasini eng munosib tarzda o'tkazish uchun o'z g'oyalaridan voz kechish qobiliyati) va boshqalar asl matn muallifi va tarjimonning shaxsiy xususiyatlarining psixologik– pedagogik nisbatini namoyon etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Solodub, Yu.P. Teoriya i praktika xudojestvennogo perevoda: ucheb. posobiye dlya stud. lingv. fak. vissh. ucheb. zavedeniy / – M.: Izdatelskiy tsentr «Akademiya», 2005. – 304 s
2. Robinson P. Individual differences, cognitive abilities, aptitude complexes and learning conditions in second language acquisition. Second Language Research. 2001 Vol. 17 № 4 P. 368—392. doi: 10.1177/026765830101700405

3. Sager Juan C. Quality and standards: the evaluation of translations. The Translator's Handbook. Catriona Picken (ed.). London: ASLIB, 2eme ed. 1989. P. 91-102.
4. Fedorov A.V. O xudojesvtennom perevode. — SPb.: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2006. — 256s.

## **CULTIVATING STUDENT'S INTERPRETING SKILLS**

**Yakusheva Yulia,**

senior teacher, The Johannes Gutenberg University, Mainz, Germany

**Kurbanova Dilafruz Shuxratovna,**

teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan

***Abstract.** The thesis investigates effective tools and strategies for teaching interpreting. The authors reveal all available comprehensive resources and the approaches to teaching interpreting; The research will contribute to the further development of designing effective tools and techniques that can be applied in the interpretation classroom. The thesis begins with a definition and task analysis of interpreting followed by a discussion of the role of training interpreting.*

***Keywords.** Teaching Interpreting, spoken-language interpreting, sign/visual language interpreting, direct interpreting, whispered interpreting, sight translation, or sight interpreting.*

**Introduction:** Interpreting as a modern profession has established its status in the international communities. Interpreters help people overcome language barriers, dispel their suspicions and serve as a bridge in intercultural communication. Also, based on the analysis of the interpreting process and all aspects of the teaching of it, the experts, at home and abroad, are generally convinced that it is the prime task and ultimate objective of teaching interpretation to train abilities and skills. Human beings communicate with each other from the very beginning of mankind. The communication intensified once the peoples evolved and developed from a technological, social and economic point of view. This progress facilitated the contact between persons not sharing a common culture and sometimes even a common language. In this context, effective human